

**O'QUVCHILAR AMALIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAJRIBALARI**

Xasanova Shoxista Boboxolovna

*Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish
milliy markazi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilar amaliy ko'nikmalarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritib berilgan*

Kalit so'zlar: *muhandislik, texnologiya, science, loyihalar, modellashtirish.*

Аннотация: *В данной статье освещены вопросы использования педагогических технологий в формировании практических навыков учеников.*

Ключевые слова: *инженерия, технологии, наука, проекты, моделирование*

Abstract: *This article describes the issues of using pedagogical technologies in the formation of practical skills of students.*

Keywords: *engineering, technology, Science, projects, modeling*

Mamlakatimiz ta'lim tizimini rivojlangan mamlakatlar ta'lim jarayonlariga moslashtirish, xalqaro baholash dasturlarida o'quvchilarimizni faol ishtirokini ta'minlash, Milliy o'quv dasturlarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchi ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni amalga oshiruvchi asosiy shaxs bo'lib hisoblanadi. Islohatlarning sifati va samaradorligi o'qituvchining ijodkorligi, faolligi, izlanuvchanligi, pedagogik mahoratiga bog'liqdir. Ta'lim jarayonini tashkil etishga mas'uliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, mahoratli, innovatsiyalar asosida darsni tashkil etuvchi, yuksak shaxsiy fazilatlariga ega ilg'or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanadigan o'qituvchilarga ehtiyoj ortib bormoqda. Pedagogik texnologiyalar oldindan rejalashtirilgan natijaga erishishga yo'naltirilgan kasbiy tayyorgarlik jarayoni bo'lib, ta'limiy loyihalar o'qituvchi tomonidan oldindan belgilanadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar jarayonida o'quvchi kreativ fikrlash, mustaqil izlanish, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish va hamkorlikda ishlashga o'rganadi. Biologiya darslarida foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar bilan tanishamiz.

J. Dyu o'qitishni o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojini hisobga olgan holda o'quvchilarning muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini faollashtirish orqali tashkil etishni taklif etgan. Buning uchun o'quvchilarga o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotga qo'llash, ulardan kelgusi hayotda foydalanish yo'llarini ko'rsatish, ya'ni nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'liq holda o'qitish lozimligini uqtirgan. Bu jarayonda o'quvchilar tanish vaziyatdagi ahamiyatga molik muammolarni avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalarini amaliyotga qo'llab hal etish orqali yangi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradilar. O'quvchilar muammolarni muvaffaqiyatli hal etishlari uchun o'qituvchi ularga tegishli

ko'rsatmalar berishi, foydalaniladigan manbalarni tavsiya etishi, o'qitishdan ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini ko'rsatishi, buning uchun muammoni hal etishda o'quvchilarning faoliyatini loyihalashi lozim. Loyihalash texnologiyasining asosiy g'oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal etish jarayonida ko'zlangan natijaga erishishdir. Agar nazariy muammoni loyihalash lozim bo'lsa, uning aniq yechimi, agar amaliy muammo bo'lsa, amaliyotga qo'llash masalasi bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish lozim. O'quvchilar ushbu natijaga erishish uchun mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini egallagan bo'lishlari, muammoni anglash va uni hal etish yo'llarini izlashlari bu borada avval o'zlashtirgan bilimlaridan foydalanishlari, fanning turli sohalarida izlanishlar olib borishlari, olinajak natijalarni bashorat qilish, turli yechimdagi variantlar ishlab chiqish, sabab-oqibat bog'lanishlarini tasavvur qilishlari zarur. Loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati ma'lum bir muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish, loyihalash faoliyatini shakllantirish, ularning tegishli bilimlarni egallashlari, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish sanaladi. Loyihalash texnologiyasining asosiy g'oyasi: "O'rganilayotgan bilim, ko'nikmalar menga nima uchun zarurligi va undan qayerda va qay tarzda foydalanishni bilaman". Bu g'oya o'quvchilarning fan asoslarini ongli o'zlashtirishlari, hayotga moslashishlari va mo'ljalni to'g'ri olishlariga yordam beradi. Biologiyani o'qitishda o'qituvchi loyihalash texnologiyasidan o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda nafaqat darsda o'quv muammolarini hal etishda, balki darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham ijodiy muammolarni hal etishda foydalanishi zarur. Bunda o'quvchilar o'quv-loyiha ishini bajarisga yunaltiriladi.

O'quv-loyiha ishini bajaradigan o'quvchi:

mustaqil fikr yuritishi, muammoni anglashi, muammoni hal etish yo'llarini izlashi, avval o'zlashtirgan bilimlaridan foydalanishi, natijalarni bashorat qilishi, turli yechimdagi variantlar ishlab chiqishi, sabab-oqibat bog'lanish-larini tasavvur qilishi zarur.

O'quv-loyiha ishi quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi.

• Loyihalash texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarga individual va differensial yondashish imkonini beradi. Loyiha toifasi, mavzusi va qatnashilar sonini aniqlash;

Loyiha muammosi, predmeti, vazifalarini aniqlash

Loyiha qatnashchilari uchun topshiriqlar tuzish va uni a'zolar o'rtasida taqsimlash;

Loyiha yuzasidan o'quvchilarning mustaqil izlanishlarini tashkil etish;

Loyihadan kutilgan natijalarni aniqlash, uni rasmiylashtirish va taqdimotini belgilash;

• Loyiha ishini yakunlash, baholash mezoni va xulosalar yasash yo'llarini aniqlash.

Tadqiqot xarakteridagi loyihalar asosida ishlash.

Ushbu loyihalarning tuzilishi juda yaxshi ishlangan, jumladan, loyihada ishtirok etadigan qatnashchilar uchun tadqiqot predmeti, dolzarbligi, ijtimoiy ahamiyati,

foydalaniladigan metodlar, tadqiqotlar va tajribalar o'tkazish, natijalarni rasmiylashtirish metodlari aniq bo'lishi kerak. Mazkur loyiha mantiqan to'lig'icha ilmiy-tadqiqot muammolariga yaqinlashgan va uning yechimiga mos va bo'ysingan bo'lishi kerak. Loyihaning ushbu turi tadqiqot mavzusining dolzarbligi, tadqiqot muammosining predmeti va obyekti, vazifalarning izchil va bosqichma-bosqich aniqlanishi, muammolarni hal etish bo'yicha farazlarni ilgari surish, uni hal etishning tadqiqot o'tkazish va tajribalar qilish yo'llarini ishlab chiqish, olingan natija va xulosalarni muhokama qilish, rasmiylashtirish, tadqiqotni davom ettirish uchun yangi muammolar belgilanishi lozim. Biologiya o'qituvchisi bu toifadagi loyihalardan darsda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning ayrim o'quvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda foydalanishi mumkin.

"Qizil lola jamoasining monitoringini tuzish" mavzusidagi loyiha iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda, ayniqsa, qo'l keladi.

Loyiha mavzusi: Qizil lola jamoasi monitoringini tuzish.

Loyiha maqsadi: Qizil lola jamoasining hozirgi tarkibi, uning kelgusidagi o'zgarishi va ularni saqlab qolish chora-tadbirlarini belgilash.

Loyihada foydalaniladigan metodlar: kuzatish, biologik statistika, tajribalar o'tkazish, umumlashtirish.

Topshiriqning mazmuni: Agar qizil lola o'sadigan maydonning 100 m^2 da 100 ta lola uchrasa, shu maydondagi lolalarning soni 10 yil davomida qanday o'zgarishini yillar bo'yicha hisoblab toping. Mazkur o'zgarishlarni grafik shaklda tasvirlang.

Eslatma: qizil lola ko'sakchasida 6 ta urug' yetilib, urug'dan chiqqan nihol 9-10 yilda gullaydi. Har bir tup lolada bir yilda 4 ta piyozcha hosil bo'lib, undan ungan nihol 4-5 yilda gullaydi. Lola urug'ining unuvchanligi 75% ni tashkil etadi. Ijodiy xarakterdagi loyihalar. Mazkur loyihani hal etishda qatnashchilardan ijodiy yondashish talab etiladi. Ijodiy loyihalarning tadqiqot xarakteridagi loyihalardan asosiy farqi, ularning mantiqiy strukturasi avvaldan belgilanmaydi, balki loyihaning yechimi davomida shakllantiriladi. Ijodiy loyihada qatnashchilarning qiziqishi, motivi, ehtiyojiga ko'ra loyihaning yo'nalishi, olinajak natija belgilanadi. Lekin loyihada ko'zda tutilgan natijani rasmiylashtirish va jihozlashda qat'iy talab qo'yiladi. Biologiya o'qituvchisi ushbu loyihalar turidan darslarda foydalanishi mumkin. Loyihalash texnologiyasi rivojlantiruvchi ta'limga asos bo'ladi. O'quvchilarda aqliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga zamin tayyorlaydi, ijodiy faoliyatning shakllanishiga asos bo'ladi. Ma'lumki, ijodiy faoliyat ta'lim mazmunining uchinchi tarkibiy qismi sanalib, uni o'qituvchining tayyor axboroti orqali shakllantirib bo'lmaydi.

O'quvchilar loyihalar yechimi ustida ishlar ekan, ular avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llab, yangi bilimlarni o'zlashtiradilar, shu tariqa ijodiy faoliyat tarkib topadi.

Buning uchun o'quvchilarga tayyor bilimlar berilmasdan, balki ularni bilimlarni mustaqil o'zlashtirish usullarini egallash, amaliy va bilishga oid muammolarni avval

o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalarini qo'llab hal etishga o'rgatish zarur; muloqotga kirishish ko'nikma va malakalarini egallashning ahamiyati, turli ijtimoiy rollarni bajarishda va kichik guruhlarda ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish zarurligini tushuntirish; bitta muammoni hal etish uchun har xil nuqtai nazarni bayon etish, boshqa tabiiy fanlar hamda ma'naviyat va madaniyat kabi jabhalarda izlanishlar olib borish zarurligini tushuntirish; o'quvchilarning tadqiqot metodlaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishning ahamiyati, zarur axborotlar, faktlar, materiallar to'plash, ularni turli nuqtai nazardan tahlil qilish, farazlarni ilgari surish, xulosa va yakun yasash lozim.

Agar o'quvchilar yuqorida qayd etilgan ko'nikma va malakalarni egallagan bo'lsalar, ular doimo o'zgarib turadigan hayotga tezroq moslashishga, turli muammoli vaziyatlarni tahlil qilib ulardan chiqishning muqobil variantini topishga, turli vaziyatlarda mo'ljalni to'g'ri olish va har xil jamoalarda ishlab ketish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Biologiya darslarida o'quvchilar amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga doir metodlar bilan ishlash

Biologiya darslarida o'quvchilar "Swot tahlil metodi" asosida ishlashi ham ularda amaliy ko'nikmalar shakllanishiga yordam beradi.

Swot tahlil metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S	Strength- Kuchli tomonlari	Virus hujayra ichkarisidagina o'z hayotchaligini o'rnatadi va tez ko'payadi. Hujayra oqsili bilan oqaga kiradi. Immun tizimini ishdan chiqaradi
W	Weakness Zaif, kuchsiz tomonlari	Virus nafaol, hujayra tashqarisida yashay olmaydi
O	Oportunity Imkoniyatlari	Viruslar tez ko'payish xususiyatiga ega. Ular oqsillarni o'zini yo'nalishiga og'diradi.
T	Threat - To'siqlar	Virusning ko'payishiga dori vositalari, emlash va shiqi muhit haroratining o'zgarishi to'sqinlik qiladi

"Fsmu" metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

I. Qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;

II. Har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:

F	Fikringizni bayon eting
S	Fikringizni bayoniga sabab ko'rsating
M	Ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	Fikrlaringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

F	Plastik almashinuv organizm o'sib-rivojlanishining muhim shartidir.
S	Plastik almashinuv jarayonlari natijasida organik birikmalar molekulalari (oqsillar, nuklein kislotalar, lipidlar, uglevodlar) sintezlanadi.
M	Plastik almashinuv jarayonlari natijasida hujayraning barcha eskirgan qismlari strukturasi yangilash uchun biomolekulalar, Uhujayrada kechadigan biokimyoviy jarayonlarni tezlashtiruvchi fermentlar (oqsillar), monosaxaridlardan polisaxaridlar, yog' kislotalari va glitserindan yog' molekulalari sintezlanadi.
U	Plastik almashinuv tufayli hujayraning eskirgan qismlari yangilanadi, organik molekulalar sintezlanib, hujayraning o'sish va rivojlanishini ta'minlaydi.

"Keys-stadi" metodi

«Keys-stadi» - inglizchaso'zbo'lib, («case» – aniqvaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlilqilmoq) aniqvaziyatlarnio'rganish, tahlilqilishasosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

"Keys metodi" ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> • yakka tartibdagi audio-vizual ish; • keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); • axborotni umumlashtirish; • axborot tahlili; • muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> • individual va guruhda ishlash; • muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; • asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> • individual va guruhda ishlash; • muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; • har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; • muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> • yakka va guruhda ishlash; • muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; • ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; • yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

KEYSLAR TUZISH METODIKASI

1-KEYS

TUG'RUQXONADAGI ENAGALAR LOQAYDLIGI TUFAYLI IKKI YANGI TUG'ILGAN O'G'IL BOLANING RAQAMLARI ADASHTIRIB YUBORILGAN. FARZAND KO'RGAN BU IKKI AYOL NIHOYATDA HAYAJONDA. ULAR BOSH SHIFOKORGA MUROJAAT ETIB, O'Z GO'DAKLARINI TOPIB BERISHNI ILTIMOS QILISHGAN. BOSH SHIFOKOR AYOLLARNI, ULARNING TURMUSH O'RTOQLARI VA GO'DAKLARINING QON GURUHINI ANIQLASHNI HAMSHIRALARGA TOPSHIRDI. ANIQLASHICHA, BIRINCHI ER VA AYOLNING QON GURUHI I VA II, IKKINCHI ER VA AYOLNING QON GURUHI I VA IV. BOLALARNING QON GURUHI I VA III.

SIZLAR QAYSI GO'DAK QAYSI OILANING FARZANDI EKANLIGINI ANIQLASHGA YORDAM BERA OLASIZLARMIZ?

Savollar:

- Chaqloqlarni qaysi oilaning farzandi ekanligini qanday aniqlaysiz?
- Chaqaloqlarning ota-onasini aniqlang
- Chaqaloqlarning qon guruhini aniqlang
- Bu erda IV- guruhli bola tug'iladimi?

Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

- 1.Keys mohiyatini etarlicha anglab oling
- 2.Muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang
3. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga harakat qiling.

4.O'z fikringizni bayon eting

O'qituvchining yechimi:

BERILGAN:

1. OTA-ONA –I VA II
2. OTA-ONA –I VA IV
3. BOLALAR - I VA II
4. OILA- F₁ - ?

1.QON GURUHLARNI YOZIB OLAMIZ.

1. IGR – OO
2. IIIGR – AA, AO.
3. IIIIGR – BB, BO.
4. IVGR - AB.

3.HAR BIR ODAM OLTI GENOTIPDAN BIRIGA EGA BO'LADI.


ULAR BO'LISHI MUMKIN

GOMOZIGOTALI (AA, BB,OO.) GETEROZIGOTALI (AB, AO, OB)

1- JUFT OTA-ONA

ERKAK I GURUH

AYOL L II GURUH




1-OTA-ONANING BOLASI I QON GURUHIGA EGA EKAN

2- JUFT OTA-ONA

ERKAK I GURUH

AYOL IV GURUH



F₁ AO BO

II GURUH

III GURUH

2-OTA-ONANING BOLASI III QON GURUHIGA EGA EKAN

2-KEYS

NAFISA UNIVERSITETNI TUGATIB, MAKTABGA O'QITUVCHI BO'LIB ISHGA KIRDI.BIR OZ MUDDATDAN SO'NG OTA-ONASI NAFISANI SHERZOD DEGAN BOLAGA TURMUSHGA BERDI.ULAR BAXTLI YASHAR EDI. ULAR FARZANDLI BO'LISHNI JUDA ORZU QILISHARDI. LEKIN ULARNING FARZANDLI BO'LISHI ANCHA KECHIKA BOSHLADI.SHERZOD NAFISANI JUDA KO'P SHIFOKORLARGA OLIB BORDI. AMMO FOYDASI BO'LMADI. KUNLAR O'TIB ASTA-SEKIN NAFISADA AYRIM ERKAKLIK BELGILAR YA'NI IYAKLARIDA TUKLAR PAYDO BO'LA BOSHLADI.SHERZOD BU HOLATNI KO'RIB TEZLIK BILAN NAFISANI SHIFOKORGA OLIB BORDI. SHIFOKORLAR NAFISADAGI BU O'ZGARISHLARNI KUZATIB, QON TAHLILLARINI TEKSHIRDI VA UNI

DAVOLAY BOSHLASHDI. NAFISA SHIFOXONADA 4 HAFTA YOTIB DAVOLANIB CHIQDI VA YANA SHIFOKOR NAZORATIDA BO'LDI. SHERZOD BILAN NAFISA BIR NECHA YIL O'TGANDAN SO'NG FARZANDLI BO'LDI VA YANA BAXTLI YASHAY BOSHLASHDI.

SAVOLLAR:

1. FARZANDLI BO'LISH NIMA UCHUN KECHIKDI?
2. NAFISADAGI BUNDAY O'ZGARISHLARNING SABABI NIMADA?;
3. ULAR QAYSI SHIFOKORGA MUROJAAT QILISHI KERAK DEB O'YLAYSIZ?
4. NAFISAGA QO'YILGAN TASHXIS ORGANIZMDAGI QAYSI ORGANLAR TIZIMI FUNKSIYASI BILAN BOG'LIQ DEB O'YLAYSIZ?
5. FARZANDLI BO'LISHIGA OLIB KELGAN QANDAY OMILLAR BOR DEB O'YLAYSIZ?

Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling
2. Muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang

3--KEYS

Madina 8-sinfda o'qiydi. U odobli va a'lochi o'quvchi. U biologiya faniga juda ham qiziqar edi. Madina yaxshi fikrlaydi. o'zi mustaqil ko'p ishlaydi. U kitob o'qishga biroz qiynalar edi. Bir kuni biologiya fan o'qituvchisi 8-sinf o'quvchilariga odam va uning salomatligi fanidan "Ko'zning ko'rish o'tkirligi mavzusi" da laboratoriya mashg'ulotini o'tkazdi. Dars jarayonida o'qituvchi barcha o'quvchilarning ko'rish o'tkirligini aniqladi. Madinani navbati kelganda u ko'rish o'tkirligini aniqlashlarini hohlamadi. O'qituvchi Madinani "Golovin-Sivsov" jadvalidagi harflarni ko'rsatish uchun nazoratchi qilib doska oldiga qo'ydi va mashg'ulotni o'tkazdi. U Madinani ham ko'z o'tkirligini aniqlay oldi. O'qituvchi bu vaziyatda qanday yo'l tutdi?

Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini etarlicha anglab oling
2. Muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang
3. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga harakat qiling.
4. O'z fikringizni bayon eting

O'qituvchining yechimi: 1. O'qituvchi Madinani ko'zi bir oz xiraligini oldindan bilar edi. Chunki dars jarayonlarida kitob o'qitgan vaqtida u bir oz qiynalib o'qir edi. SHuning uchun o'qituvchi uni "Golovin-Sivsov" jadvalini oldindan ko'rib, o'rganib olishi uchun uni doska oldidagi jadvalni harflarini ko'rsatib turuvchi nazoratchi qilib qo'ydi. Sababi u o'sha joyda turib harflarni joyini o'rganib olishi uchun o'qituvchi shunday yo'l tutdi.

2. Madinani navbati kelganida o'qituvchi o'zi doska oldiga turib, unga yirikroq harflarni ko'rsatishga harakat qildi va ushbu vaziyatdan chiqib ketdi.

3. Men ham o'qituvchi o'rnida bo'lganimda shu yo'lni yoki oldindan o'quvchini ogohlantirib qo'ygan bo'lar edim. Chunki o'qituvchi hamma vaqt o'quvchini bunday holatlardan, o'rtoqlari oldida noqulay vaziyatdan, o'zini sezdirilmagan holda chiqarib yuborishi birmuncha to'g'ri bo'ladi deb o'ylayman

Xulosa qilib aytganda, o'qitishga bunday yondashuv bolalarga nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini samarali amalga oshirish imkonini beradi. O'quvchilarning ijodkorligini oshiradi, loyihalash ko'nikmalarini shakllantiradi, yuqori malakali, zamon talabiga mos kadrlar tayyorlashda mustahkam poydevor bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PFRQ – 5538-son farmoni. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2018-yil 10-sentyabr, 36-son, 722-modda.
2. Shaxmurova G.va boshqalar. Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar. O'quv uslubiy-majmua. Toshkent- 2018
3. Tolipova J.O. va boshqalar. Odam va uning salomatligi darslari (O'qituvchi kitobi) Umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiya o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. (8-sinf) "Tafakkur" nashriyoti. Toshkent – 2016-y.
4. xtxmom.tdpu.uz